
Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Rishtonning qahramon o'g'loni Mamadali Topvoldiev memorial muzeyining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi

Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan bugun Rishton tumani Zohidon MFY hududida Rishtonning qahramon o'g'loni Mamadali Topvoldiev xotirasini abadiylashtirish maqsadida uning memorial muzeyi foydalanishga topshirildi. Unda viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni birinchi o'rinbosari Jamshid Karimov, viloyat sektorlari rahbarlari, viloyat Mudofaa va Xavfsizlik tizimlari rahbarlari, Belarussiyadan kelgan mehmonlar, uning oila-a'zolari, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Ochilish marosimida so'z olgan viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, Mamadali Topvoldievning buyuk qahramonliklarini faxr bilan qayd etdi. Viloyat rahbari, jahondagi bugungi murakkab sharoitda yurtimizda hukm surayotgan tinchlikni qadrlash, osoyishta hayot uchun shukronalik har qachongidan ko'ra muhimligiga ham e'tibor qaratdi. Mamadali Topvoldiev 1938 yilda urushga borib, Belarussiya hududidagi janglarda katta qahramonliklar ko'rsatib, fashistlarni larzaga keltirgan, g'alaba uchun o'z hissasini qo'shgan. Uni "Kazbek" deb nomlashgan. Shu nomni eshitgan har qanday dushmanning oyog'i qaltiragan. Belorus xalqi ham Mamadali Topvoldievni yaxshi ko'radi va u kishini nomini abadiylashtirish maqsadida jang bo'lgan qishloqlarga nomini berib, e'zozlab keladi. "O'zbekfilm" hamda "Belarusfilm" Milliy kinostudiyasi o'rtasida hamkorlikda "Osiyo arsloni" nomli filmni viloyatimizda suratga olish ishlari ham boshlab yuborildi. Bugungi tadbirda, "Belarusfilm" milliy kinostudiyasi Bosh direktori Vladimir Karachevskiy hamda filmda rol olgan ijodkorlar ishtirok etishdi. Belorusliklar nomidan Mamadali Topvoldiev timsolida o'zbek xalqiga minnatdorchilik bildirgan Vladimir Karachevskiy, "Biz, Belorus xalqiga tinch hayotni baxsh etganlarni hech qachon unutmaymiz" deb ta'kidladi. Bosh rolni Ulug'bek Qodirov ijro etayotgan Mamadali Topvoldiev haqidagi biografik drama O'zbekistonda va Belorusda suratga olinadi va kelgusi yil 9 mayda premyerasi bo'lib o'tadi. Nuroniyalar ishtirokida ramziy tasma qirgilib, tadbir ishtirokchilari muzey faoliyati bilan tanishdilar. Mamadali Topvoldievning muzeyida uning orden, medallari, faxriy yorliqlar, ro'zg'or buyumlari, yozishmalari, shaxsiy kiyimlari, qurollar, urush haqidagi adabiyotlar jamlangan. Muzey qurilishi uchun viloyat mahalliy byudjetidan 1,5 mlrd. so'm mablag' ajratildi.

2022-05-09 06:41:55